

**NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNING DIQQAT
XUSUSIYATLARI**

I. S. Isodullayeva-FarDU o'qituvchisi

M.I. Jakbarova-FarDU talabasi

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar, ulardagi diqqat xususiyatlari to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** nutq, logopat, diqqat, ixtiyoriy diqqat.*

Inson psixikasining muhim jihatlaridan biri bu-diqqatdir. Diqqat shaxsning ruhiy faoliyatini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va muayyan maqsadga qaratilgan psixik jarayon hisoblanadi. Bolaning bilish faoliyatida diqqatning roli nihoyatda katta, chunki u idrok, tafakkur, xotira va nutq kabi jarayonlarning samarali kechishini ta'minlaydi. Ayniqsa, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ularning rivojlanishiga to'g'ri yondashuvni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Nutq bolaning umumiy psixik rivojlanishida, ijtimoiylashuvida, bilimlarni egallashida va atrof-muhitni idrok etish jarayonida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Nutqning to'liq shakllanmasligi nafaqat kommunikativ faoliyatga, balki kognitiv jarayonlarga, xususan diqqat jarayonining rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Diqqat-psixikaning asosiy funksional tizimlaridan biri bo'lib, barcha bilish jarayonlarining samaradorligini belgilaydi.

Nutq nuqsoni-fonetik-fonematik, leksik-grammatik yoki umumiy nutq rivojlanishining kechikishi bilan bog'liq buzilishlar majmuidir. Bu bolada faqat talaffuz yoki lug'at zaxirasini emas, balki idrok, analiz-sintez jarayonlarini, eshituv va vizual differensiyani, diqqatning shakllanishini ham buzishi mumkin.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar deganda-talaffuz, lug'at boyligi, grammatik tuzilma yoki nutqning umumiy rivojlanmaganligi bilan ajralib turuvchi bolalar nazarda tutiladi. Ular orasida dizartriya, alaliya, dislaliya, rinolaliya yoki

logonevroz kabi nutq buzilishlari kuzatiladi. Bu holatlar nafaqat nuta balki diqqat, xotira, idrok va tafakkur kabi psixik jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Nutq nuqsonlariga ega bolalarda diqqatning rivojlanishi juda muhim va murakkab jarayon bo'lib, ularning umumiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq rivojlanishining buzilishi, ayniqsa, bolalarda diqqatni e'tiborga olgan holda, muayyan vazifalarni bajarishda qiyinchiliklar tug'diradi. Bu bolalar, odatda, e'tiborni uzoq davom ettira olmaydilar, diqqatni to'g'ri yo'naltira olmaydilar va vazifalarni yakunlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Natijada ularning o'quv qobiliyatlari, yozish va muloqot qilish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq nuqsoni bilan bog'liq diqqat buzilishlarining rivojlanishida neyropsixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Masalan, miya faoliyatining buzilishi va neyrofiziologik muhitdagi o'zgarishlar diqqatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bolalarda nutq va diqqat rivojlanishining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik muhit va tarbiya sharoitlari muhim rol o'ynaydi.

Psixologiyada diqqat uch turga bo'linadi:

- 1.Ixtiyorsiz diqqat-tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'ladi.
- 2.Ixtiyoriy diqqat-ongli boshqaruv natijasida, maqsadli faoliyat jarayonida yuzaga keladi.
- 3.Ixtiyordan keying diqqat-faoliyat qiziqarli va foydali bo'lganda tabiiy ravishda davom etadi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda aynan ixtiyoriy diqqat zaif shakllanadi. Bunday bolalar topshiriqni bajarish jarayonida tez chalg'iydi, faoliyatni oxiriga yetkazish qiyin bo'ladi, diqqat barqarorligi past bo'ladi. Bu esa o'quv jarayonida nutq rivojlantirishni sekinlashtiradi. Nutq kamchiligiga ega bolalarda diqqatning quyidagi xususiyatlari kuzatiladi:

Diqqat barqarorligining pastligi-bola bir faoliyatda uzoq vaqt diqqatni saqlay olmaydi. Bu og'zaki ko'rsatmalarni to'liq tushunmaslik yoki axborotni qayta ishlash jarayonining sustligi bilan bog'liq;

Diqqat hajmining torligi-bir vaqtning o'zida bir nechta obyektни qamrab olish qiyinlashadi;

Diqqatning taqsimlanishi qiyinligi-ko'p komponentli, bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajarish talab qilinadigan topshiriqlarda ularning samaradorligi pasayadi;

Tez charchash-diqqatning uzoq davom etmasligi etmasligi sababli bola tez toliqadi; Ixtiyoriy diqqatning kech shakllanishi-nutq qanchalik kam rivojlangan bo'lsa, bolalarda o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish va ixtiyoriy ravishda diqqatni boshqarish shunchalik murakkab bo'ladi;

Ta'sirchanlik-tashqi shovqin, yorug'lik, boshqa odamlarning harakati diqqatni tez chalg'itadi; Bu xususiyatlar logopedik va psixologik mashg'ulotlarda individual yondashuvni talab qiladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'pincha vizual diqqat eshituv diqqatiga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun ta'limda ko'rgazmalilik, rangli materiallar, tasvirli kartochkalar muhim rol o'ynaydi. Nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv-motor koordinatsiyasining kech shakllanishi, fonematik idrokning pastligi, psixologik charchoqlarga moyillik, kommunikativ qo'rquv diqqatning buzilishiga sabab bo'ladi. Bu omillar diqqatning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Logopat bolalarning diqqatini rivojlantirishda alohida logopedik mashg'ulotlar va psixologik yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Bunday bolalar bilan ishlashda o'yin texnologiyalarining roli katta. O'yin-diqqatni rivojlantirishning eng tabiiy vositasidir. Bunda qoidaga asoslangan o'yinlar ixtiyoriy diqqatni kuchaytiradi. (Masalan, "Kim tezroq topadi?", "Eshit va bajar", "Harakatni takrorla"). Ko'rish, eshitish, sezish, harakat tizimlarini bir vaqtda jalb qilish diqqatning barqarorligini oshiradi. Nutq va diqqatni rivojlantirish uchun amaliy usullar, shuningdek, bolalarning shaxsiy ehtiyojlari, yosh va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, individual yondashuvni talab qiladi.

Birinchi navbatda, nutq nuqsoniga ega bolalarda diqqatni rivojlantirish uchun o'yinlar asosidagi metodlar keng qo'llaniladi. Bu yondashuv, bolalarning e'tiborini qaratishni va muayyan vazifaga e'tibor berishni o'rgatishda samarali bo'ladi. Masalan, rangli va shakllarga asoslangan o'yinlar, bolalarning

vizual diqqatini muayyan vazifaga yo'naltirilishini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun bolalarga so'zlar bilan bog'liq o'yinlar, rasmlar va hikoyalar bilan ishlash tavsiya etiladi. Bu usullar bolalarning nutqini rivojlantirish bilan birga diqqatni uzoq vaqt davomida saqlash va muayyan vazifani bajarishga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim strategiya, strukturalangan mashg'ulotlar va muayyan tartibda bajariladigan vazifalarni tashkil etishdir. Bu yondashuv bolalarga diqqatni yo'naltirish va uni saqlashni o'rgatishda yordam beradi. Masalan, vaqt belgilash, vazifalarni boshqichma-bosqich bajarish va har bir bosqichda muvaffaqiyatni ta'minlash uchun motivatsiya yaratish mumkin. Bu usul, ayniqsa, nutq nuqsoniga ega bolalarda diqqatning buzilishiga qarshi qurashishda muhim bo'lib, ularning muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, vizual va audial qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish, masalan, jadvallar va ovoqli ko'rsatmalar diqqatni jarayon davomida ushlab turishga yordam beradi.

Shu bilan birga texnologiyalar asosidagi vositalar ham diqqatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kompyuter va planshetlar yordamida tashkil etilgan interaktiv o'yinlar bolalarning diqqatini uzoqroq davom ettirish va nutqini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu vositalar yordamida bolalar uchun individual yondashuv va tezkor fikr-mulohaza olish imkoniyati ta'minlanadi.

Amaliy strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglar va logopedlar o'rtasida hamkorlik muhimdir. Ota-onalar va tarbiyachi bilan doimiy aloqada bo'lish bolalarning rivojlanishini kuzatish va muayyan strategiyalarni moslashtirish imkoniyatlarini beradi. Shuningdek, bolalar uchun individual dasturlar ishlab chiqish, ularga mos keladigan yondashuvlarni taklif etish muhim. Bu yondashuvlar bolalarning nutq va diqqat muammolarini kompleks tarzda hal etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqatning rivojlanish darajasi ularning o'qish, fikrlash va muloqot ko'nikmalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Diqqatning pastligi nutqiy mashg'ulotlarni murakkablashtiradi, lekin to'g'ri tashkil etilgan logopedik ishlar, o'yin metodlari va individual

yondashuv bu kamchiliklarni kamaytiradi. Nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqatning rivojlanishi nutq, eshituv, idrok va boshqa kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Ularning diqqat jarayonlari ko'pincha barqaror emas, hajmi kichik va ixtiyoriy tartibi kech rivojlanadi. Demak diqqatni shakllantirish-bu nafaqat psixologik, balki pedagogik va logopedik muhim vazifadir. Bu bolani jamiyatga moslashuvchan, nutqiy jihatdan faol va mustaqil shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilova.M “Bolalarda diqqat jarayonlari psixologiyasi”.-Toshkent,2016
2. Xamraeva.R “Maxsus pedagogika va psixologiya”.-Toshkent:Fan va texnologiyalar,2020
3. Tursunov.S “Bolalarda nutq muammolari va diqqatni shakllantirish usullari”.Xalqaro Pedagogik Tadqiqotlar.
4. Yusufova.M “Nutq va diqqatni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar”
5. Qodirova.D “Nutq nuqsoniga ega bolalarda diqqat xususiyatlarini o'rganish”.Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali.